

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 53 749,9 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 108,8 foizni, YaHMning deflyator indeksi 113,9 foizni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 13 472,8 ming so'mni va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,7 foizni tashkil etdi.


### **Viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**

|   | yanvar-dekabr<br>oylarida | mlrd. so'm      |              |
|---|---------------------------|-----------------|--------------|
|   |                           | 2020- yil       | 2021- yil    |
| <b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>            | <b>43 386,6</b>           | <b>53 749,9</b> | <b>108,8</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                              |                           |                 |              |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 42 478,3                  | 52 640,7        | 108,8        |
| Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 908,3                     | 1 109,2         | 109,5        |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>42 478,3</b>           | <b>52 640,7</b> | <b>108,8</b> |
| <b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>19 346,3</b>           | <b>23 622,4</b> | <b>104,6</b> |
| <b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>8 779,7</b>            | <b>10 927,0</b> | <b>112,0</b> |
| Sanoat  | 6 294,6                   | 7 789,8         | 110,8        |
| Qurilish  | 2 485,1                   | 3 137,2         | 115,2        |
| <b>Xizmatlar</b>                                  | <b>14 352,3</b>           | <b>18 091,3</b> | <b>112,5</b> |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 2 720,2                   | 3 355,7         | 109,9        |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari   | 2 504,2                   | 3 384,8         | 124,7        |
| Boshqa xizmatlar                                  | 9 127,9                   | 11 350,8        | 110,0        |




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi, % da

2020- yil




2021- yil



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida YaHMning o'sish surati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8 foizni tashkil qilishiga yalpi qo'shilgan qiymat hissasida qishloq,

o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining 2,0 foizga, (YaHM tarkibidagi ulushi 44,9 %), sanoat 1,6 foizga (14,8 %), qurilish 0,9 foizga (6,0 %) xizmatlar 4,1 foizga (34,3 %) shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 0,6 foizni (6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 1,4 foizga (6,4 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 2,1 foizga (21,5 %) o'sishi hisobiga to'g'ri keldi.

### **YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**




### *Iqtisodiy faoliyat turlari*

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,9 foizni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 foizni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,1 bandga ko'payib hisobot davrida 20,8 foizni, xizmatlar sohasi esa 0,5 bandga ko'payib 34,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 0,6 bandga kamayib 44,9 foiz bo'ldi.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi, % da




YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 73,4 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,8 bandga kamaygan.

### YaHMda kichik biznesning ulushi, jamiga nisbatan % da



## YaHMning deflyator indeksi bo'yicha o'sish sur'atlari, % da



### *Iqtisodiy faoliyat turlari*

YaHMning deflyator indeksi yanvar-dekabr oylarida 113,9 foizni tashkil qilib, eng yo'qori o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi (116,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (112,2 %) va sanoat sohalari (111,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.